

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Tel:+998994420005

E-mail: shin-set-sunan@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13912773>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotda tutgan o'rni, xizmatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalari, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiya faoliyatini samarali yo'lga qo'yish zaruriyati tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar va ularni samarasi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Xizmatlar sohasi, xizmatlar raqobatbardoshligi, innovatsiya jarayoni, xizmatlar sifati.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Худайбердиева Нургиза Низомиддин кизи

Старший преподаватель

Наманганского государственного университета,

Доктор философии по экономике, PhD

Tel:+998994420005

E-mail: shin-set-sunan@mail.ru

Абстракт. В данной статье анализируется роль сферы услуг в экономике, экономические, социальные и экологические функции сферы услуг, необходимость эффективных инноваций на предприятиях сферы услуг. Также были освещены меры, направленные на развитие сферы услуг в нашей стране и их эффективность.

Ключевые слова: Сфера услуг, конкурентоспособность услуг, инновационный процесс, качество услуг.

THE ROLE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN ENSURING ECONOMIC DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Khudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi

Senior Teacher of Namangan State University

PhD. Tel:+998994420005

E-mail: shin-set-sunan@mail.ru

Abstract. This article analyzes the role of the service sector in the economy, the economic, social and ecological functions of services, the need for effective innovation in service enterprises. Also, measures aimed at the development of the service sector in our country and their effectiveness were highlighted.

Key words: Service industry, service competitiveness, innovation process, service quality.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayon xaridor extiyojlarini va innovatsiya imkoniyatlarini aniqlash, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish, innovatsion axborot va ko'nikmalar bilan ishlash, innovatsiyani realizatsiya qilish va muvaffaqiyati to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga oladi. Demak, aynan shu jarayonlarni samarali boshqarishni tashkil etish ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar xizmat ko'rsatish korxonalari raqobatbardoshligi uchun muhim hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xizmatlar iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Ayrim xizmatlarning roli ishlab chiqarish, taqsimot jarayonlari, ayirboshlash va takror ishlab chiqarish tizimini uzilishsiz ta'minlovchi moddiy ishlab chiqarish mahsulotlarini iste'mol qilish sohalari bilan bog'liqdir. Boshqa xizmatlar esa ishchi kuchining rivojlanishini ta'minlash, ta'lim va madaniy-texnologik darajani oshirish, sog'likni mustahkamlash va mehnat qobiliyatini rivojlantirish, hordiq chiqarishni ta'minlash bilan bog'liq.

Xizmat ko'rsatish sohasi yalpi talabni oshishiga xizmat qiladi, shunday xizmatlar borki, ular aholi iste'mol savatchasiga kiritilgan, masalan, tibbiy xizmatlar, transport xizmatlari va kommunal xizmatlar. Ushbu xizmatlarni iste'mol qilish, ayniqsa inqiroz davomida, yalpi talabni oshishiga olib keladi. Xizmat ko'rsatish sohasi qishloq xo'jaligi va sanoatga nisbatan ko'proq investitsion jozibadorlikka ega, chunki xizmat ko'rsatish sohasida biznesni boshlash uchun katta kapital talab qilinmaydi hamda iqtisodiy risk nisbatan kam. Bundan tashqari, xizmatlar sohasining rivoji yashirin iqtisodiyotning ulushi kamayishiga sabab bo'ladi, chunki xizmatlar sanoati rivojlanishi raqamli tehnologiyalardan foydalanishni ommalashtiradi hamda savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida terminallar, naqt pulni ro'yhatdan o'tkazish tehnologiyalari ishlatiladi va pul aylanishining qonuniyligi oshadi. Shu sababdan, raqamli tehnologiyalar yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda va xatto iqtisodiyotda uning yo'qolishidamuhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasi aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratishda, ishsizlikni bartaraf etishda ham muhim rolo'ynaydi. Aynan ta'lim xizmatlari tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalarga kadr tayyorlash orqali ham aholini ish bilan ta'minlanish jarayonini yengillashtiradi. Ushbu soha bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar xarajatlarini qisqartirish orqali ishlash sharoitlarini yengillashtiradi, samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyot va davlat xavfsizligini ta'minlaydi. Bu vazifani aynan raqamli xavfsizlik xizmatlari bajaradi hamda ular tahdidlarni bartaraf qiladi. Xizmatlar sohasi atrof muhitni himoya qilishda ham muhim ro'l o'ynaydi, bu atrof-muhit xizmatlarini ko'rsatilishi orqali, jamiyatda atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan turli tadbirlar orqali, tabiyatga yetkaziladigan zararni kamaytirishga mo'ljallangan tehnologiyalarni tanishtirilishi orqali hamda xizmat ko'rsatish sohasi yordamida tabiiy resurslardan besamara foydalanishni bartaraf etish va ularni qayta joylashtirishni ta'minlash orqali amalga oshadi.

Rivojlangan davlatlarda aholi turmush darajasining yuqoriligi, ishlash sharoitlarining qulayligi, ta'lim va meditsina xizmatlarining sifatli xizmat ko'rsatish sohasining rivoji bilan bog'liq bo'lib, bu sohadagi ilmiy izlanishlarning ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish modellari amaliyotga tabiiq

qilingani ko'plab davlatlarning YaIMida soha ulushining oshishiga sabab bo'lgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasining o'rni kundan kunga oshib borayotgan bir vaqtda soha rivojining asosiy ko'rsatkichlaridan biri yaratilayotgan xizmatning raqobatbardoshligi bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri har bir xizmat ko'rsatish korxonasiidagi innovatsion faoliyat darajasiga bog'liq. Oxirgi yillarda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish borasidagi xarakterlarni ulardagi marketing faoliyatini kengayishi, iste'molchilar xoxishlarini o'rganish, ishchilarni innovatsion loyihalar ishlab chiqishga jalb etish, eng so'nggi fan texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish harakatlarida ko'rish mumkin. Ammo xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish va samarali boshqarish masalasida boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi kabi nisbatan sust bo'lib qolmoqda.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayon xaridor extiyojlarini va innovatsiya imkoniyatlarini aniqlash, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish, innovatsion axborot va ko'nikmalar bilan ishlash, innovatsiyani realizatsiya qilish va muvaffaqiyati to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga oladi. Demak, aynan shu jarayonlarni samarali boshqarishni tashkil etish ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligi uchun muhim hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5113-sonli qaroriga asosan, 2023-yilgacha iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish hamda xizmatlar hajmini 2 barobarga oshirish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari ushbu qarorga muvofiq:

- aholiga tayyor biznes rejalar va loyihalar taqdim etish, ularni kasbga o'qitishdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi "kompleks xizmatlar" ko'rsatishni tashkil etish;
- respublikada xizmatlar sohasining rivojlanganligini baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va mansabdor shaxslarning ma'suliyatini kuchaytirish;
- xizmatlar sohasida ortiqcha burokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish, hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qamrovini kengaytirish;
- respublikaning barcha hududlarida mavjud ta'lim va sog'likni saqlash xizmatlari salohiyatini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, bunda xususiy sektorni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish Respublikamizda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rib shuni aniq aytish mumkinki, mamlakatimizda xizmatlar sohasi rivojiga berilayotgan katta e'tibor, ajratilayotgan mablag'lar, yaratilayotgan qulayliklar va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tadbiiq etilishi bu sohaning iqtisodiyotda yetakchi bo'lishiga va to'g'ridan-to'g'ri mamlakatimiz aholisi turmushini yanada farovon bo'lishiga xizmat qiladi.